

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025  
**FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**A.G.Sabirdinov**

O'zbek tarixiy romani: Oybek va Qodiriy ..... 6

**G.M.Oripova**

Aylor ijodkorlar she'riyatida daraxt obrazi tasviri ..... 9

**M.A.Jo'rayeva**

Munavvar Qori Abdurashidxonov ijodida safar janri ..... 13

**G.Muhammadjonova**

Hayot haqiqati, tarixiy haqiqat va badiiy idrok ..... 17

**И.А.Эшонкулов**

Tavsiysi mushahhasi tazkiiraҳoi Ҳашмати Бухорай ..... 21

**B.X.Murtazoyev, F.O.Hafizova**

“Bobotog”essesida peyzaj: flora tasvirida badiiyilik ..... 28

**И.А.Эшонкулов, З.П.Аҳмадҷонова**

Ситоиши хирад ва хирадгустарй дар “Шоҳнома”-и Ҳаким Фирдавсий ..... 34

**D.T.Musayeva**

Elizabet Gaskell ijodiga nazar ..... 39

**Н.Н.Қаюмов**

Muammoi shinoxti sanъati tashxis dар поэтикан мумтози форсу тоҷик ..... 42

**Sh.T.Ibragimov**

“Babur the tiger” romani o'zbekcha tarjimasida metafora ifodasi ..... 47

**J.T.Ibragimov**

“Qutadg'u bilig” istioralarining poetik o'ziga xosliklari xususida chuqr mulohaza ..... 55

**A.A.Akbarov**

Vatanga muhabbatning lirik ifodasi ..... 61

## TILSHUNOSLIK

**Sh.M.Iskandarova**

Farg'ona davlat universiteti tilshunosligi: kecha va bugun ..... 66

**Г.М.Хошимов, М.Г.Хошимов, Н.А.Абдуллаева, Д.Ш.Назарова, Д.А.Ахмедова**

Актуальные проблемы терминологического аппарата и метаязыка исследования пословиц и поговорок ..... 71

**Z.V.Alimova**

Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida sifat turkumiga oid forsiy leksemalar xususida ..... 81

**A.B.Uralov**

Ayrim kengaygan shakllar taraqqiyoti hamda ularda nomutanosibliklar ..... 86

**Z.A.Davlataliyeva**

Ingliz tili darslarida talabalarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmuni, shakli va vositalari ..... 90

**Н.А.Абдуллаева**

Сопоставительное изучение провербем, вербализующих концептуальную оппозицию «ум/глупость» в английском и русском языках ..... 95

**Н.А.Отахонова**

Проблемы общей теории и классификации лингвокультурой ..... 100

**B.B.G'apporov**

Ingliz gazeta sarlavhalarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularda fe'l komponentli kollokatsiyalarning qo'llanilishi ..... 106

**D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova**

Siddiq Mo'minning "Buyuk Temur avlodi" nomli she'rida pretsedent nom tahlili ..... 112

**N.Fidan**

Ellipsis in English text linguistics ..... 115

**M.O.Qulmamatova**

Ingliz va o'zbek tillaridagi “boylik/wealth va kambag'allik/poverty” konseptlarining o'xshashlik va farqli jihatlari ..... 120

**N.X.Boboqulova**

Ingliz va o'zbek tillarida head/bosh somatik komponentli maqollarning konseptual tahlili ..... 124

**УО'К: UDK: 82-94(575)"19"***Muso Toshmuhammad Oybek tavalludining 120 yilligiga bag'ishlanadi***O'ZBEK TARIXIY ROMANI: OYBEK VA QODIRIY****УЗБЕКСКИЙ ИСТОРИЧЕСКИЙ РОМАН: ОЙБЕК И КАДИРИЙ****UZBEK HISTORICAL NOVEL: OYBEK AND QODIRIY****Sabirdinov Akbar Gofurovich**

Farg'onan davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

**Annotatsiya**

*Maqolada o'zbek tarixiy romanining yuzaga kelishi va uning takomil yo'llari haqida so'z yuritiladi. Oybek tarixiy romanlari bilan Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanini qiyoslanadi. Tarixiy romanda bosh qahramon talqinidagi uslubiy o'ziga xosliklar tahlil etiladi. Oybek va Abdulla Qodiriyning bu boradagi betakror yondashuvlari ko'rsatib beriladi.*

**Abstract**

*The article discusses the emergence of the Uzbek historical novel and the paths of its development. Oybek's historical novels are compared with Abdulla Qodiriy's O'tkan kunlar (Bygone Days). The stylistic peculiarities in the interpretation of the main character in historical novels are analyzed. The distinctive approaches of Oybek and Abdulla Qodiriy in this regard are highlighted.*

**Аннотация**

*В статье рассматривается возникновение узбекского исторического романа и его пути развития. Исторические романы Ойбека сравниваются с романом Абдуллы Кадыри "Уткан кунлар" (Прошедшие дни). Анализируются стилистические особенности интерпретации главного героя в историческом романе. Показаны уникальные подходы Ойбека и Абдуллы Кадыри в этом отношении.*

**Kalit so'zlar:** tarixiy roman, mahorat, bosh qahramon, janr xususiyatlari, uslubiy o'ziga xosliklar, til boyliklari, tarixiy haqiqat, badiiy to'qima, shartliik

**Key words:** historical novel, craftsmanship, protagonist, genre features, stylistic uniqueness, linguistic richness, historical truth, artistic fiction, conventionality

**Ключевые слова:** исторический роман, мастерство, главный герой, особенности жанра, стилистические особенности, языковое богатство, историческая правда, художественная ткань, условность.

**KIRISH**

O'zbek romani bir asrdan ko'proq izlanishlar va taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. U turli ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni, turli metodologik yangilanishlarni, an'anayu ijodiy ta'sirlarni boshidan o'tkazdi.

XX asr boshlari jadid ziyolilarimiz milliy roman yaratish borasida ilk izlanishlarni olib bordilar. Masalan, Mirmuhsin Shermuhammedov – Fikriyning "Befarzand Ochildiboy" (1914) asari bu boradagi ilk tajriba bo'lib, muallif uni milliy roman deb atadi. Professor B.Qosimov ta'biri bilan aytganda, u "Xronologik jihatdan o'zbek adabiyotida yaratilgan ilk yirik prozaik asar"[1,380] hisoblanadi. So'ng 1915 yilda H.H.Niyoziyning "Yangi saodat" deb atalgan "milliy roman"i bosilib chiqdi. Yuqoridaq asarlar roman janri talablariga to'la javob bermasa-da, bu boradagi izlanishlarning mahsuli sifatida hozir ham ahamiyatini yo'qtgani yo'q. Shuningdek, H.H.Niyoziy tarjimai holida 1908 yilda "Eski podsholar turmushidan "Haqiqat kimda?" nomli roman yozganligini xotirlaydi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan dastlabki parchalar 1922-yilda "Inqilob" jurnalida e'lon qilindi. So'ng romanning har bir bo'limi alohida-alohida: 1-bo'lim 1924, 2-bo'lim 1925, 3-bo'lim 1926 yilda kitob holida nashr etilgan. Asar bosilgach, tez tarqaldi,

## ADABIYOTSHUNOSLIK

mashhur bo'ldi, halqning ardoqli kitobiga aylandi. Mashhur rus sharqshunosi YE.E.Bertels yozadi: "Dunyoda beshta romanchilik maktabi bor: oltinchisini Abdulla Qodiriy yaratdi". Ma'lumki, dunyoda fransuz, ingliz, nemis, rus va hind romanchilik maktablari mavjud. Abdulla Qodiriy oltinchi – o'zbek romanchilik maktabiga asos soldi [2,76]. Ushbu roman xalq orasida qanchalik shuhrat qozongan bo'lsa, vulgar sotsialogizmi bilan to'yingan adabiy muhit faqat undan kir axtarishga tushdi.

Adabiy tanqidchilikda mazkur roman haqidagi munozaralar 20-yillardan boshlandi. 1928 yilda, avval M.I.Shevverdinning, so'ng S.Husaynning maqolalari e'lon qilindi. Munaqqidlarning biri "Mafkura jihatidan A.Qodiriy romanı – birinchi o'zbek romanı, bizning roman eması" deb yozgan bo'lsa, ikkinchisi "A.Qodiriy kuchli yozuvchi, kuchli adib. Menimcha, bizning undan kuchli narsalar va mafkurasi jihatidan "O'tkan kunlar"ga qaraganda bizga yaqinroq asarlar kutishimiz mumkin" deya baholaydi. Bu esa proletar diktaturasi kuchaygan sho'ro davrining mafkuraviy-siyosiy talablaridan kelib chiqib berilgan baholar edi.

Oybekning "Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li" monografiyası 1936 yilda yuzaga keldi. Ushbu asar 1956 yilda qayta ishlaniib, yozuvchi o'n tomlik "Asarlar to'plami"ning to'qqizinchi tomida bosib chiqarildi. Lekin adabiyotshunoslarning ko'pchiligi Oybekning "O'tkan kunlar" va uning qahramonlari haqidagi fikrlarida "vulgar sotsiologizmi" ta'sirida sinifiy aqidaparaslikka berilish hollari, bir yoqlama yondashuvlar borligi to'g'risidagi tahlillarni bildirganlari holda, nima uchundir, uning jahon andozalari asosidagi realistik tarixiy roman talablari qandayligi, unda yozuvchining o'z konsepsiysi bayoni haqida fikrlari to'g'risida hech narsa demaydilar. Holbuki, Oybek ushbu monografiyasida realistik, tarixiy roman janri talablari qanday bo'lishi kerak degan savolga o'z konsepsiysi va uslubidan kelib chiqib Yevropa romanchiligi mezonlari asosida javob berishga harakat qilganini ko'rish mumkin.

Abdulla Qodiriy esa "O'tkan kunlar" romanini yaratishda o'z davri kitobxonining saviyasini hisobga olganligini yashirib o'tirmaydi. Yevropa romanchilik maktabi saviyasidagi romanni Sharq mumtoz adabiyoti, xalq og'zaki ijodi va kitobxonligi ruhida voyaga etgan Turkiston o'quvchisiga taqdim etish "hali tishi chiqmagan bolaga qurut shimitish" (Abdulla Qodiriy iborasi – S.A.) bilan barobar bo'lishini e'tirof etadi. Shu bois Abdulla Qodiriy romanning kirish qismida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo'ydiq, bas, biz har bir yo'sunda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o'xshash dostonchiliq, ro'monchiliq va hikoyachiliklardan ham yangarishg'a, xalqimizning shu zamonning "Tohir-Zuhra"lari, "Chor darvesh"lari, "Farhod-Shirin" va "Bahromgo'r"lari bilan tanishdirishka o'zimizda majburiyat his etamiz. Yozmoqqa niyatlanganim ushbu – "O'tkan kunlar" yangi zamon ro'monchiligi bilan tanishish yo'lida kichkina bir tajriba, yana to'g'risi bir havasdir. Ma'lumki, har bir ishning ham yangi – ibtidoiy davrida talay kamchiliklar bilan maydong'a chiqishi, ahllarning etishmakliklari ila sekin-sekin tuzalib, takomilga yuz tutishi tabi'iy bir holdir. Mana shuning daldasida havasimda jasorat etdim, havaskorlik orgasida kechaturgan qusur va xatolardan cho'chib turmadim. Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar. Shunga ko'ra mavzu'ni moziydan, yaqin o'tkan kunlardan, tariximizning eng kirlig, qora kunlari bo'lg'an keyingi "xon zamonlari"dan belguladim"[3,30].

## NATIJA VA MUHOKAMA

Tabiiyki, XX asr boshlarida ijodkorlarni realistik tarixiy roman talablari qanday, unda qahramon tasviri qanday bo'lishi lozim, tarixiy romanda milliy qahramon, bosh obraz qanday talqinini topishi zarur, degan savollar o'ylantirgan. Professor S.Mirvaliyev tarixiy romanga xos ayrim belgilarni quyidagicha bo'lishi zarur deb hisoblaydi: Avvalo, tarixiy roman bo'lishi uchun birinchi galda roman tabiatiga, shakliga ega bo'lmog'i zarur. Bu degani voqelikni keng va chuqur epik bayon va epik obrazlarda tasvirlash demakdir. Binobarin, tarixiy roman esa ana shu umumiylar belgilardan tashqari yana bir necha xususiy sifatlari bilan alohida ajralib turadi. Bu, avvalo, uning o'tmish haqidagi fakt, hujjat sifatida qayd etilgan bo'lishi, eng muhim tarixiy ritvojlanishning burilish va ko'tarilish nuqtasi asar mazmuning belgilamog'i lozim. Shuningdek, tarixiy romanning yana bir belgisi asar yaratayotgan muallif bilan tasvirlanayotgan tarix, voqelik orasida ma'lum oralig' – masofa-distansiya bo'lmog'i lozim. Ba'zi adabiyotshunoslardan tarixiy romanda tarixiy shaxsning epik obrazi yaratilishi shart deb qaraydilar. Ammo adabiyot, qolaversa, tarixiy roman tajribasi bunday xulosani hamisha to'g'riligiga kafolat beravermaydi. Va niyoyat, tarixiy romandagi yana bir muhim belgi tarix fani bilan aloqadorligi masalasidir, ya'ni bir mavzu, bir davr, bir tarixiy hujjat haqida tarixiy roman janri ham o'z hukmini chiqarishi tabiiy. Farqi: birida tavsiflash, birida tasvirlashdir [4,74-75].

Shu o'rinda Oybekning "Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li" monografiyasidagi tarixiy roman haqidagi o'z konsepsiyasidan kelib chiqib, "O'tkan kunlar" romani to'g'risidagi tanqidiy fikrlarini ham ikki buyuk yozuvchining tarixiy materiallardan foydalanish uslublaridagi, bosh qahramon yaratish va unga yondashuvlardagi ayirmalarning ko'zgusi sifatida baholashimiz kerak bo'ladi.

Oybek yozadi:

1. Ushbu roman ("O'tkan kunlar" - S.A) maishiy, axloqiy, oilaviy va sevgi munosabatlarni aks ettirgan psixologik asar. Chunki asosiy qahramon yozuvchi ixtiyori bilan tarixiy voqealar qaynagan joylardan chetda olib yuriladi. Bu o'rinda Oybek Toshkentdag'i qorachopon va qipchoqlar janjalida Otabekning shahar chetiga qimiz ichish uchun chiqib ketganligi, voqealarda ishtirok etmasligini nazarda tutadi.

2. Qahramonlar portreti talqinida realistik tasvir prinsiplaridan chekinish o'rirlari mavjud. Manfiy tiplar – xunuk, badbashara; musbat tiplar – chirolyi, qaddi-qomati kelishgan.

3. Tarixiy asarda har bir epizod, har bir kartina, har bir detal syujetning tarkibiy qismiga kirishi lozim. U vaqt, tarixiy harakatga buysunsin.

4. Tarixiy syujetga molik romanidan tarixiy haqiqatga badiiy obrazlar orqali erishuv va moziy kartinasini asliga monand berish, asarlarga ko'milgan hayotni badiiy qaytadan yaratish, obrazlarda jonli hayotni ko'rsatish talab qilinadi.

5. Haqiqiy realist san'atkor bilan ilmiy metodologiya ila qurollangan tarixchi ma'lum nuqtalarda uchrashuvlari kerak. Ularning tarixiy hayotni tekshirishlari, hodisa va voqealarni tanlashdagi yo'l va priyomlari qanchalik ayrim bo'lmasin oxirgi paytda, so'nggi natijalarda ular uchrashuvlari lozim, ya'ni tarixchining haqiqati ila san'atkorning haqiqati muvofiq, hamohang bo'lishi kerak. Qisqacha aytganda, badiiy haqiqat tarixiy haqiqatga mos kelsin [5,131].

Oybek ana shu talablardan kelib chiqqan holda "Qutlug' qon" (1938), "Navoiy" (1942) romanlarida tarixiy haqiqat bilan badiiy haqiqatni muvofiqlashtirdi, uyg'unlashtirdi. Yo'Ichini ham, Navoiyni ham ijtimoiy-siyosiy hamda toj-taxt uchun kurashlar qaynagan jabhalarga tashlab, faol qatnashchilar sifatida ko'rsatdi. "Qutlug' qon"dagi salbiy qahramon Nurini tasvirlashda ham yoshlik, go'zallik, balog'at quvvati barq urib turgan, har qanday yigitni nurli yuzi, nozik qomati bilan asir etuvchi qiz sifatida tasvirlaydi. Bu uning salbiy xarakteriga zid bo'lsa-da, soya solmaydi. Balki uning haqqoniy, hayotiy, joni qiyofasi talqinining yaratilishiga xizmat qiladi. Xuddi shunday holatni qahramon salbiy xarakteriga uning fikrlaridagi mantiqiylikning mos kelmasligini Mirzakarimboy qiyofasida ko'rishimiz mumkin. Ushbu o'rinda akademik M.Qo'shjonovning "Oybekning "Navoiy" romani "O'tkan kunlar", "Kecha va kunduz", "Sarob"lardan uslub jihatidan farq qiladi. Bu roman ortiqcha to'qimalardan holi bo'lib, tarixan hayotda ro'y bergen aniq ma'lumotlarni tadqiq qilgan holda yozgan ilmiy romandir. Shu ma'noda "Navoiy" XX asr o'zbek adabiyotida yaratilgan tom ma'nodagi tarixiy-biografik romandir. Shu jihatlari bilan "Navoiy" o'zbek romanchiligining yangi bosqichi edi, degan xulosaga kelish mumkin [6,15] tarzdagi e'tirof xarakterlidir. Zero, romanda uch yuzdan ortiq personaj tilga olingan, har birining ichki va tashqi qiyofasi betakror chizgilarda aks etgan. XV asr Hirot bozoridan tortib madrasalardagi mullabachchalarning masala talashib ko'targan to'polonlarigacha jonli [7,74]

## XULOSA

A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani o'zbek tilining boy imkoniyatlari borligini ko'rsatib bergen bebafo asardir. Yozuvchi aksariyat o'rirlarda voqealar bayoni va talqinida shartlilik prinsipidan mahorat bilan foydalanadi. Kitobxon yozuvchining mahorati tufayli uning badiiy haqiqatiga to'la ishonadi. Bu Abdulla Qodiriya xos uslub edi. Oybek ham o'z uslubidan kelib chiqib, faktlarga yondoshib, fikrlarini to'la isbotlay oldi. "Qutlug' qon" va "Navoiy" kabi o'lmas asarlarni yaratdi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qosimov B. Milliy uyg'onish. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
2. Qodiriyni qumsab. – Toshkent: Xalq merosi, 1994.
3. Qodiri A. O'tkan kunlar. Besh jildlik. I jild. – Toshkent: Info Capital Group, 2017.
4. Mirvaliev S. Abdulla Qodiri. – Toshkent: Fan, 2004. – B.74-75.
5. Oybek. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik. O'n to'rtinchchi tom. – Toshkent: Fan, 1979.
6. Qo'shjonov M. Ko'ngilda qolgan gaplar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – B.15.
7. Sabirdinov A. Ma'naviyat va ma'rifat chashmalar. – Toshkent: Akademnasnr, 2016.